

O'QUVCHILAR BILAN YAKKA TARTIBDA VA GURUH BO'LIB ISHLASHNING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Boltayeva Surayyo Ixtiyorovna

*Buxoro viloyati Buxoro tuman MMT bo'limiga qarashli 49-umumiy o'rta ta'lif
maktabi psixologi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lif jarayonida yakka tartibda va guruh bo'lib ishlashning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida tushunchalar ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *yakka tartibda ishslash, guruhda ishslash, intellektual salohiyat, interfaol metod, tashabbuskorlik, ilm-fan.*

KIRISH.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'lifning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Globallashuv jarayonida innovation texnologiyalarning joriy etilayotgani ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshishiga turtki bo'lmoqda.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor ta'lif tizimini va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi.

Ta'lifning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lif markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lif muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallahdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak.

Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Interfaol ta'lif-hamkorlikda faoliyat olib borish, suxbat, dialog muxitida bo'lish. Interfaol metodlar o'quvchilarining faqat o'qituvchi bilan emas, balki o'zaro xamkorligiga, ya'ni kichik guruhlarga asoslanadi.

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib o'qituvchi darsni interfaol metodlar asosida olib borishi talab etilmoqda. Bunda o'qituvchi nafaqat o'quvchilar bilan balki o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishadi.

Ta'lif olish jarayonida o'quvchilar faolligiga e'tibor qaratiladi. Buyuk donishmand Konfutsiy 3500-yil muqaddam quyidagi fikrni ta'kidlab o'tgan.

-Eshitganimni yoddan chiqaraman;

- Ko 'rganimni eslab qolaman;
- Bajarganimni tushunib yetaman;

Ushbu fikrning tasdig'i sifatida biz o'qituvchilar o'quvchilarni yangi materialni o'zaro hamkorlikda turli o'yinlar, interfaol metodlar orqali o'zlashtirishlariga zamin yaratishimiz lozim. Shundagina o'quvchilar berilgan materialni yaxshi o'zlashtira oladi.

O'qitishda o'quvchilarning *bilim darajasi* va *qiziqishlari* ham hisobga olinadi. Ana shunday usul va metodlardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Guruh tartibda ishslashning ijobjiy va salbiy hususiyatlari.

1. Rezyume metodi:

Texnologianing tavsifi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologianing mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning aloxida elementlari muxokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologianing maqsadi: o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishslashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topishga, kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullahsga, shuningdek, berilgan muammoni yechish hamda mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologianish qo'llanishi: ma'ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka (yoki kichik guruxlarga ajratilgan) tartibda o'tkazish, shuningdek, uyg'a vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Mashg'ulotda foydalilaniladigan vositalar: A-3 formatdagi qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va xar bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaklarni tarkatadi;
- har bir guruh a'zolari o'zlariga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma

bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- o'qituvchi boshqa kichik guruxdardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruxlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- o'qituvchi guruxlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izox berib, ularni baxolaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Mashg'ulot jarayonida guruh bo'lib ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Guruh bo'lib ishlash jarayonida o'quvchi o'zini erkin xis qiladi, so'z boyligi oshadi.

Mashg'ulotni amalga oshirishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni guruhlarga ajratishda sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni faol o'quvchilar bilan birgalikda ishslashlari uchun imkoniyat yaratadi. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etishga intiladi, o'z fikrini bayon eta oladi.

Xulosa qilib aytganda ta'lif jarayonida qo'llaniladigan turli xil interfaol usullarni qo'llashda yakka tartibda va guruh bo'lib ishlashga juda katta e'tibor berishimiz lozim. Bu o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni oson va tez o'zlashtirib olishlari uchun katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lif va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent-2013-y.
2. www. "Zyonet".uz.www.google.uz tarmog'idagi ma'lumotlar.
3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lif va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent-2013-y.
4. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириши муаммолари: назария ва амалиёт уйгунилиги.*
5. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы.*